

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 7923,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 6,5%ga o'sdi.

2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 4303,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,7% ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan xissasi 3,6%ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish**

	<i>Mrld.so'm</i>		<i>2018 yil. yanvar-iyuniga nisbatan, % da</i>
	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>	<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	
<b>I. YaHM</b>	<b>6 145,6</b>	<b>7 923,2</b>	<b>106,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 933,1	7 536,2	106,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	212,5	387,0	109,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 933,1</b>	<b>7 536,2</b>	<b>106,3</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 600,7	3 041,4	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 311,6	1 873,4	112,2
sanoat	853,9	1 280,0	110,8
qurilish	457,7	593,4	114,8
Xizmatlar	2 020,8	2 621,4	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	376,1	462,5	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	452,2	494,1	105,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 192,5	1 664,8	105,2

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 114,8% (YaHM tarkibidagi ulushi 7,9%), sanoat – 110,8% (YaHM tarkibidagi ulushi 17,0%), xizmatlar-105,7% (YaHM tarkibidagi ulushi 34,7%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi -103,9% (YaHM tarkibidagi ulushi 40,4%)ni tashkil qildi.

### 2019 yil yanvar-iyunida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,1%ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,9%ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,4 punktga kamaydi va hisobot yilida 40,4%ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 2,8 punktga oshdi va 24,9%ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-iyun oylarida 34,7%ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (34,1%) bilan taqqoslanganda 0,6 punktga ko'paydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 6,1%ni (2018 yil yanvar-iyun 6,3%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,6%ni (7,6%), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 22,0%ni (20,2%) tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil  
yanvar-iyun



2019 yil  
yanvar-iyun



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va  
yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: M.Sultanmurotov  
Tel: (0-371) 230-87-65